



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

B U Y R U Q

2025 yil “06” dekabr № 282-T

Samarqand shaxar

Masofaviy ta‘lim shaklida ta‘lim olayotgan talabalarning yakuniy nazoratga qadar fanlarni o‘zlashtirish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim tashkilotlarida masofaviy ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi, 2021-yil 21-sentyabrdagi 606-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta‘limni olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarorining 1-ilovasi “Oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentyabrda 3069-raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “Oliy ta‘lim tashkilotlarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom va 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori (“Oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”) asosida hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali kengashining 2025-yil 29-noyabr 4-sonli bayonnoma ko‘chirmasiga asosan

B U Y U R A M A N:

1. “Masofaviy ta‘lim shaklida ta‘lim olayotgan talabalarning yakuniy nazoratga qadar fanlarni o‘zlashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” ilovaga muvofiq **tasdiqlansin**.
2. Filialning Masofaviy ta‘lim markazi, Raqamli texnologiyalar markazi, Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi hamda O‘quv-uslubiy boshqarma mazkur Nizomda belgilangan tartibning to‘liq va sifatli bajarilishini **ta‘minlasin**.
3. Kafedra mudirlari va professor-o‘qituvchilarga:
 - Nizomda belgilangan baholash va monitoring mexanizmlarini o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirsin;
 - Hemis axborot tizimi hamda Moodle (mt.sbtsue.uz) platformalariga natijalarni belgilangan muddatlarda joylashtirsin.

4. Akademik halollik tamoyillariga rioya qilinmagan hollarda talabalarning natijalari Nizomga muvofiq **bekor qilinsin**, mas'ullar esa belgilangan tartibda javobgarlikka tortilsin.

5. Mazkur Nizom talablari bajarilishini **nazorat qilish** o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari F.B.Axrorovga yuklatilsin.

Direktor



O. Murtazayev

Masofaviy ta’lim shaklida ta’lim olayotgan talabalarning yakuniy nazoratga qadar fanlarni o‘zlashtirish tartibi to‘g‘risida
NIZOM

Mazkur Nizomlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-sentyabrdagi 606-son “Oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish tartibi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarorining 1-ilovasi “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi” Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentyabrda 3069 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom va 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori (“Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”) asosida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida (keyingi o‘rinlarda – Filial) **masofaviy ta’lim shakli** asosida kredit-modul tizimida ta’lim olayotgan talabalarni yakuniy nazoratga qadar bilimni nazorat qilish va baholash tizimini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom filial o‘quv jarayonida Kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) asosida ta’limning kredit-modul tizimini joriy etishda talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tartibini belgilaydi.

2. Tartib Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining masofaviy ta’lim platformasi — <https://mt.sbtsue.uz> orqali o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha talabalar bilan ishlash mexanizmini belgilaydi.

3. Ushbu tartib **yakuniy nazoratgacha (YN)** oraliq bosqichlarda fanni o‘zlashtirish jarayonlariga nisbatan qo‘llaniladi.

4. O‘zlashtirish jarayonlari attestatsiya sessiyasi boshlanadigan haftaning oldingi haftasi shanba kuniga qadar yakunlanadi.

5. Sog‘liq yoki texnik sabablar tufayli materiallarni topshirish mumkin bo‘lmasa, talabaga shifokor ma’lumotnomasi yoki texnik hujjat asosida alternativ muddat berilishi mumkin.

6. Tartibda “masofaviy ta’lim”, “sinxron” va “asinxron rejimlar”, “LMS (Learning Management System)” kabi atamalar 559-son qarorda belgilangan normativ ta’riflarda qo‘llaniladi.

2-bob. Talabalar bilan ishlash tartibi

1-§. Fanni o‘zlashtira olmagan talabalarni aniqlash hamda yakuniy nazoratga qatnashishga ruxsat berilmaslik holatlari.

7. Fanni o‘zlashtira olmagan talabalar quyidagi holatlar asosida aniqlanadi:

- o LMS tizimida (mt.sbtsue.uz) faol ishtiroki 75,1 % dan kam bo‘lsa;
- o amaliy, laboratoriya yoki mustaqil ishlar bajarilmagan bo‘lsa;
- o oraliq nazorat natijasi 3 dan past bo‘lsa yoki topshirmagan bo‘lsa;
- o sababsiz bir fanga ajratilgan auditoriya darsini 25 % va undan yuqori qoldirgan bo‘lsa.

8. Talabaning o‘zlashtira olmaganligi sabablari dekanat, kafedra hamda o‘qituvchi tomonidan elektron tahlil varaqasi asosida rasmiylashtiriladi.

2-§. O‘zlashtirish mexanizmi

9. Talaba fanni o‘zlashtirish uchun **mt.sbtsue.uz** platformasida o‘qituvchi tomonidan belgilangan **elektron kurs modullarini** mustaqil o‘zlashtiradi.

10. Har bir modul bo‘yicha talaba quyidagi shakllarda topshiriqni bajaradi:

- o referat, glossariy yoki amaliy topshiriq;
- o video-prezentatsiya, onlayn test yoki nazariy esse;
- o loyihaviy ish yoki ko‘rgazmali material.

11. Barcha baholash jarayonlari **5 baholik tizim** asosida amalga oshiriladi:

- **5 (A’lo)** – talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda;
- **4 (Yaxshi)** – talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda;
- **3 (Qoniqarli)** – talaba olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda;
- **2 (Qoniqarsiz)** – talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda;

Nazorat turlarini o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabaning o‘zlashtirishini xolis (obyektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi shart

12. Fanni o‘zlashtirish jarayoni yakunlangach, professor-o‘qituvchi tomonidan natijalar umumlashtirilib o‘rtacha baho hemis elektron platformasiga qo‘yiladi.

3-bob. Nazorat va javobgarlik

13. O'zlashtirish jarayonlari O'quv uslubiy boshqarma qoshidagi, **Masofaviy ta'lim markazi, Raqamli texnologiyalar markazi** hamda **Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi** tomonidan onlayn monitoring qilinadi.

14. Belgilangan muddat (oraliq nazorat) o'tganidan keyin topshiriqlar qabul qilinmaydi.

15. Akademik halollik tamoyillariga rioya etmagan (ko'chirish, plagiat, sun'iy natijalar kiritish) talabalar natijalari **bekor qilinadi**.

4-bob. Yakuniy qoidalar

16. Mazkur tartib Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan.

17. Monitoring natijalariga ko'ra ushbu tartibda aniqlangan kamchiliklar O'quv uslubiy boshqarma tomonidan Masofaviy ta'lim markazi, Raqamli texnologiyalar markazi hamda Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limining taqdimnomasi asosida bartaraf etilishi majburiy hisoblanadi.

18. Tartibga o'zgartirishlar yuqorida keltirilgan 559-, 824- va 3069-son hujjatlar talablari asosida kiritiladi.

19. Tartibning amaldagi tasdiqlangan elektron versiyasi filialning rasmiy veb-sahifasi — <https://mt.sbtsue.uz> ga joylashtirilgan.

20. Mazkur Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.